



AZALIY QARDOSH MAMLAKATLARIMIZ O'RTASIDAGI ISHONCHLI DO'STLIK VA MUSTAHKAM SHERIKLIK MUNOSABATLARINING YANGI RAMZI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 31-mart kuni amaliy tashrif bilan Xo'jand shahrida bo'ldi.



Xo'jand shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

O'zbekiston rahbarining tashrifi sharafiga davlat bayroqlari ko'tarildi. Milliy kuy-qo'shiq va raqslar ijro etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dastlab Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashuv o'tkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ikki tomonlama do'stlik, strategik sheriklik va ittiqochlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik yuksak darajaga ko'tarilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 700 million dollardan oshdi. Sanoat, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Samarali hududlararo aloqalar va faol madaniy-gumanitar almashinuv yo'lga qo'yilgan.

Hukumatlararo komissiyaning bo'lajak yig'ilishida amaliy hamkorlik bo'yicha qo'shma loyihalarni tezlashtirish choralari ishlab chiqilishi muhim ekani ta'kidlandi.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, mamlakatimizda o'tkaziladigan

ko'p tomonlama sammitlar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon huzurida tashqi siyosat idoralari rahbarlari O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida ittiqochlik munosabatlari o'rtasida mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo'shniqlik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziga aylanishi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tdi.

Eng avvalo, bu oliy darajadagi faol va ishonchli aloqalarni davom ettirishdir.

Shu hafta Samarqandda "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittiqoqi" birinchi sammiti va mintaqadagi umumiy ekologik tahdidlarga bag'ishlangan Iqlim forumi bo'lib o'tadi.

May oyida Ko'rfaz arab davlatlari bilan sammit, sentyabr oyida esa Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazildi.

Shu munosabat bilan bo'lajak tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash va umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun tashqi ishlar vazirliklari orqali muntazam maslahatlashuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Chegaradosh hududlarning hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu hujjat, shuningdek, uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida imzolangan shartnoma barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Tantanali ravishda ochiladigan Do'stlik stelasiga esa qardosh mamlakatlar o'rtasida mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo'shniqlik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziga aylanishi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tdi.

Eng avvalo, bu oliy darajadagi faol va ishonchli aloqalarni davom ettirishdir.

Shu hafta Samarqandda "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittiqoqi" birinchi sammiti va mintaqadagi umumiy ekologik tahdidlarga bag'ishlangan Iqlim forumi bo'lib o'tadi.

May oyida Ko'rfaz arab davlatlari bilan sammit, sentyabr oyida esa Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazildi.

Shu munosabat bilan bo'lajak tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash va umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun tashqi ishlar vazirliklari orqali muntazam maslahatlashuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Chegaradosh hududlarning hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan tovar ayirboshlash hajmi o'n karradan ziyodga oshgani qayd etildi. Bu hajmning deyarli yarmi chegaradosh hududlarga to'g'ri keladi.

Shu bois, chegaralardagi bojxona punktlarini kompleks modernizatsiya qilish va kengaytirish, qulay, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini shakllantirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Uch tomonlama savdo maydonchasini tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining doimiy faoliyat ko'rsatadigan ko'rgazma-yarmarkasini yo'lga qo'yish masalasi o'rganish taklif etildi.

Yana bir yo'nalish — sanoat kooperatsiyasi loyihalari.

Bugungi kunda O'zbekiston korxonlari va xususiy kompaniyalari qo'shni mamlakatlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga faol sarmoya kiritmoqda.

Kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakatimiz rahbari qo'shma investitsiya jamg'armalari kapitalini bosqichma-bosqich oshirishga tayyorligini bildirdi.

Mamlakatlar o'rtasida transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni davom ettirishga kelishib olindi. Bu aviaqatnovlar sonini ko'paytirish va geografiasini kengaytirish, chegaradosh hududlardagi shaharlar o'rtasida yangi avtobus yo'nalishlarini yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

"Yashil" energetika va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, suv va ekologiya dasturlarini ilgari surish diqqat markazida bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti hukumatlar iqtisodiy yo'nalishda yanada faol ishlab, xalqlarimiz farovonligini oshirishga qaratilgan tezkor, real natijalar berishi lozimligini alohida ta'kidlandi.

Shu kunlarda Xo'jand shahrida qator madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazilayotgani xalqlarimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilayotgani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari har yili Navro'z bayrami kunlarida chegaradosh hududlarda qo'shma konsert va do'stlik festivallarini o'tkazishni taklif etib, kelgusi yilda bunday tadbirlarni Farg'ona shahrida tashkil etishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda uch davlat rahbarlarining Qo'shma deklaratsiyasi qabul qilindi.

Xo'jand shahrida o'tgan oliy darajadagi tadbirlar dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan

hududda Do'stlik stelasini tantanali ravishda ochdilar.

Uch mamlakat Bosh vazirlari o'rinbosarlari videoaloqa orqali davlat rahbarlariga qurilish ishlari yakunlangani va obyekt tayyorligi to'g'risida axborot berdi.

Ushbu yodgorlik qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniqlik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzi bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida chegara masalalarining hal etilishi — hurmat, suverenitet, tenglik va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslangan ko'p yillik mashaqqatli mehnat, samimiy muloqot va hamkorlik samarasidir. U uchta mamlakat xalqlari o'rtasidagi ishonch va do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga, ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilgan holda, har tomonlama sheriklikni rivojlantirish uchun mutlaqo yangi istiqbollarni ochadi.

Ayni damda, shuni alohida qayd etish kerakki, bu jarayonda butun mintaqaning birlashuvi katta rol o'ynadi, bu esa mohiyatan, yuzaga kelayotgan muammolarni faqat murosra va bir-birining manfaatlarini o'zaro hurmat qilish ruhida tartibga solish uchun asos yaratdi.

Davomi 2-beta

OLY DARAJADAGI FAOL MULOQOTLAR IKKI TOMONLAMA ALOQALARNI YANADA RIVOJLANTIRADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an 30-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon hayiti munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Davlat rahbarlari qardosh xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo'shma loyiha va korxonalar soni, to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar ko'paymoqda.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo'lajak navbatdagi yig'ilishi va Turkiya davlatlar tashkilotining

rejadagi sammitiga tayyorgarlik ko'rishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda bo'lajak Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va qo'shma biznes forumini, shuningdek, Turkiya Buyuk millat majlisi delegatsiyasining Parlamentlararo ittiqoq Assambleyasining 150-sessiyasida ishtirok etish uchun tashrifini samarali o'tkazish muhimligi qayd etildi.

Davlat rahbarlari xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'ZA

XALQARO VA MINTAQAHAMMIYATIGA MOLIK DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 30-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon hayiti — Iyd al-Fitr bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Do'st O'zbekiston va Pokiston xalqlariga tinchlik-osoysishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etildi.

Joriy yil fevral oyida Pokiston Bosh vazirining O'zbekistonga tarixiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni "yo'l xaritasi"ga muvofiq amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Vazirliklar, idoralar va tarmoqlar darajasidagi muloqotlar faollashgani va almashinuvlar samarali tus olgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mart oyida Islomobod shahrida O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Aprel

oyidan Lahorga qo'shimcha aviareyslar yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Qo'shma loyihalarning ijrosini ko'rib chiqish va ularni jadallashtirish choralarini ko'rish uchun Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishini joriy yilda o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Pokiston yetakchilari mintaqa kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'ZA



MILLATLARARO TOTUVLIK, BAG'RIKENGLIK VA TINCHLIK TARANNUMI
2025-yil 31-mart. Bu sana Markaziy Osiyo birdamligi, xalqlarimiz hamjihatligi va abadiy do'stligimiz ulug'langan kun sifatida umumiy tariximiz sahifasiga oltin harflar bilan yozilajak.

Davomi 2-beta

AZALIY QARDOSH MAMLAKATLARIMIZ O'RTASIDAGI ISHONCHLI DO'STLIK VA MUSTAHKAM SHERIKLIK MUNOSABATLARINING YANGI RAMZI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faol tashqi siyosati mintaqani yaqinlashtirish jarayonlariga muhim hissa qo'shdi. Prezident mamlakat rahbari lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan, Markaziy Osiyo mintaqasini O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab bergan.

Yaxshi qo'shniçilik va ishonchni mustahkamlash, mavjud muammolarni tartibga solish, umumintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro maydonda faol hamkorlik qilish mintaqaviy siyosatning asosiy vazifalariga aylandi.

Xo'jand shahrida o'tgan uch tomonlama sammit doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Bo'lib o'tgan uch tomonlama muzokaralar yakunlari, ularning asosiy natijasi sifatida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolangan yuksak baholandi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishdagi yutuqlar mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 70 foizga oshdi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan, qo'shma Investitsiya jamg'armasi ko'magida sanoat kooperatsiyasi muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

Energetika va transport kommunikatsiyalari sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalarni, shu jumladan, "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari hududlar o'rtasidagi faol aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish muhimligini qayd etdilar.

Prezidentlar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini va kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar.

Xo'jand shahridagi sammitning madaniy dasturi doirasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat rahbarlari Xo'jand qal'asiga tashrif buyurib, uning tarixi bilan tanishdilar.

Bu noyob majmuaning qurilishi miloddan avvalgi IV-V asrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalar natijasida o'sha davrda birinchi qal'a bunyod etilganligi aniqlangan.

1999-yilda qayta ta'mirlash ishlaridan so'ng qal'a yonida 28 mingdan ortiq ekspozitsiya o'z ichiga olgan o'lakshunoslik muzeyi ochildi.

So'nggi restavratsiya ishlari jarayonida qal'a devorlari, arki va darvozalari qayta tiklandi, ma'muriy bino, hunarmandchilik do'konlari qurildi, Xo'jandning qadimiy hovlilari namunalari yaratildi.

Hududda tojik xalqi tarixi va madaniyatiga oid 5 ta ko'rgazma zalidan iborat majmua barpo etildi. 8 ta hovlida hunarmandlar xattotlik, rassomchilik, adras to'qish, so'zana tikish, tosh o'ymakorligi, temirchilik va kulolchilik bilan shug'ullanmoqda.

Davlat rahbarlari uch mamlakatning hunarmandchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va milliy taomlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirib, badiiy chiqishlarni tomosha qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat madaniyat va san'at ustalarining konsertida qatnashdilar.

Davlatimiz rahbari o'z so'zida biror xalqlarni bahoriy yangilanish bayrami Navro'z va muborak Ramazon hayiti bilan chin dildan qutladi.

— Bugun xalqlarimiz uchun haqiqatan ham katta va uzoq kutilgan bayram. Biz uch davlat chegaralarining tutash

nuqtasi haqidagi tarixiy shartnomani imzoladik. Bundan buyon chegaralar — birodarlik chiziqchilari, yangi imkoniyatlar, bunyodkorlik va hamkorlik makonidir, — dedi Prezident.

Xalqlarimizning muqaddas tuprog'i, dini, taqdiri bir, tashvish-u quvonchlari, intilishlari o'xshash ekanini ta'kidlandi. Endi bu to'g'ri zaminni bugungi va kelajak avlodlar munosib va baxtli yashashi uchun birgalikda obod qilish bizning burchimizdir.

Keyingi yillarda umumiy siyosiy iroda tufayli mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda ulkan ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Kuni kecha O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma kuchga kirdi. Yaqin kunlarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida ham shunday hujjat imzolandi.

Savdo, investitsiyalar, yul tashish, fuqarolarning bordi-keldisi izchil ko'payib bormoqda. Muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihalari soni oshmoqda.

Madaniy tadbirlar, ijodiy festivallar, yoshlar forumlari, sport musobaqalarini muntazam o'tkazib borishga alohida e'tibor qaratildi.

— San'at chegaraga bilmaydi, uning buyuk vazifasi odamlarni birlashtirish. Uch mamlakatning iste'dodli san'at ustalari ijrosidagi bugungi konsert ham madaniyatlarimizning boyligi, rang-barangligi va mustarakligini yana bir bor namoyish etdi, — dedi so'zining yakunida O'zbekiston Prezidenti.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Tojikiston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

Aeroportda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kuzatib qo'ydi.

O'ZA

MILLATLARARO TOTUVLIK, BAG'RIKENGLIK VA TINCHLIK TARANNUMI



Boshlanishi 1-betda

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Xo'jand shahrida bo'ldi. Bu yerda davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda uch davlat rahbarlarining Qo'shma deklaratsiyasi qabul qilindi.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi haqidagi bayonoma imzolandi.

Xo'jand shahrida o'tgan oliy darajadagi tadbirlar doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev, Emomali Rahmon va Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do'stlik telasini tantanali ravishda ochdilar.

Ushbu yodgorlik qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzi bo'ladi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining Xo'janddagi tarixiy uchrashuviga hamohang tarzda 31-mart kuni mamlakatimiz bo'ylab millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va do'stlik bayrami bo'lib o'tmoqda.

Barcha viloyatlarda, tuman va shaharlar, mahallalardabo'lib o'tayotganbayramshukhi mintaqaviy birladimimiz ruhi, Markaziy Osiyo xalqlari hamjihatligi, og'izburchiligi tarannumi sifatida nishonlanmoqda.

Navro'z falsafasi, muborak Ramazon hayiti hikmati, Markaziy Osiyodagi abadiy do'stlik tantanasi bilan uyg'unlashib ketgan bu bayramda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki qo'shni davlatlardan kelgan azaliy qardosh xalqlar ham ishtirok etayotgani e'tiborlidir.

— Ikki millatning do'stlik, yaqin qardoshlik aloqalari uzoq o'tmishga borib taqaladi, — deydi Tojik milliy madaniyat markazi Suxrondaryo viloyat bo'limi rahbari Ramazon Abdullayev. — Bu do'stlikka Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy hazratlari o'z davrida yangicha asos solgan. Bizning davrimizga kelib, O'zbekiston va Tojikistonning davlat rahbarlari yangi qiyofada rivojlantirmoqda. Tojikiston xalq artisti Boqi Raimzoda o'zbek va tojik millati haqida so'z yuritib, boshqa xalqlarni ajratish oson, lekin biz shu darajada yaqinlashib ketganmizki, ko'rgan kishi "Ey do'st, sen o'zbekmi yo tojikmi?" degan savolni beradi, deya ikki xalqning do'stligi va yaqin qardoshligini nozik tashbehlarda kuylagan. Xalqimiz qadimdag o'zaro qardoshlik aloqalarimiz yangi qiyofada qayta bo'y ko'rsatganidan mamnunligini ham har yil bahor ayyomida keng tarannum etishga odatlandi.

— Bugungi kunda ushbu chegaradosh hududda 3059 nafar aholi yashaydi, — deydi Quvasoy shahridagi "Pastki Valik" MFY raisi A.Shoyunusov. — Ta'kidlash

joizki, mahallamizda muntazam ravishda millatlararo do'stlikni targ'ib etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, aholi o'rtasida vatanparvarlik, elu yurtga sadoqat kabi fazilatlarga keng targ'ib etilmoqda.

— Mening millatim qirg'iz, — deydi Andijon viloyati Xo'jaobod tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh Qorabuloq mahallasida yashovchi Aynash To'xtayeva. — Boquvchimiz yo'q, nogironman, ikki nafar farzandim bilan yashayman. Tikuvchilik hunarim borligi uchun mahallamizning xotin-qizlar faoli ko'magi bilan o'tgan yili menga subsidiya asosida tikuv mashinalari berildi. Bugun tikuvchilik bilan shug'ullanib daromad o'layman, turmushdagi kamlarning o'rini to'ldirishga harakat qilayman.

— Jonajon diyorimiz Xorazmda to'rt mingdan ortiq koreyslar o'zbek, turkman, tojik, rus, qozoq va boshqa millat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda, — dedi Koreys milliy madaniy markazi rahbari Antonina Kim. — Bayram barchaga o'zgacha xursandchilik bag'ishlamogda. Tadbirga boshqa ellar va millat vakillari qatorida Koreys milliy madaniy markazi a'zolari ham qizg'in tayyorgarlik ko'rib kelgan. Ijtimoiy adolat, qonun ustuvor, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari hurmat qilinayotgan yurtga mana shunday bayramlar yarashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qo'shni davlatlar bilan chegaralar ochilganda qancha odamlar quvonchi ichiga sig'may yig'lagan, davlatimiz rahbarini alqab duo qilgandi.

Tojikistonning Xo'jand shahrida Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Prezidentlari ishtirokida tarixda ilk bor bo'lib o'tayotgan uch tomonlama sammit mamlakatlarimiz o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Bu quvonchli xabarni uch mamlakat xalqlari katta xursandchilik bilan kutib olmoqda.

Shu tariqa bayram bayramlarga ulanmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, birdamlik, bag'rikenglik shukhi, o'zaro bog'liqlikda taraqqiy etish maqsadi keziy yuribdi. Yasharish va yangilanish ayyomida mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va do'stlik bayrami ana shu hamjihatlik va abadiy do'stlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"YASHIL" UYLAR

KECHANING XATOSINI TUZATISH, ERTANING FAROVONLIGINI TA'MINLASH OMILI

Bugunning gapi

Dunyo tajribasida uy isitish va sovitishda "yashil" energiyadan foydalanish nafaqat ekologik barqaror yechim, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanini isbotladi. Energiya samarador uylar iste'molni sezilarli darajada kamaytirish barobarida o'zidan energiya ishlab chiqarishi bilan ham alohida ajralib turadi.

Bugun kunda mamlakatimizdagi mavjud uy-joylarning aksariyatida energiya samaradorligi past. Sababi ular energiya resurslari, ayniqsa, tabiiy gaz arzonligi tufayli issiqlik izolyatsiyasiga yetarlicha e'tibor berilmagan holda barpo etilgan. Oqibatda qishda issiqlikning katta qismi tashqariga chiqib ketadi, yozda esa xonalar tez qiziydi. Natijada isitish va sovitish uchun ko'shimcha energiya sarflanadi.

Tahlillarga ko'ra, energiya samaradorligi past uylarda issiqlikning katta qismi turli vositalar orqali yo'qotiladi. Xususan, havo aylanish tizimidan 30-35 foiz, derazalardan 20-40 foiz, devorlardan 15-25 foiz, poydevordan 15-20 foiz, tomdan 10-20 foiz issiqlik tashqariga chiqib ketadi. Bunday yo'qotishlar uyda issiqlikni saqlashni qiyinlashtirib, isitish xarajatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, uylarni qurish va ta'mirlashda samarali izolyatsiya materiallaridan foydalanish, germetizatsiya qilish, energiya tejoychi deraza va eshiklar o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etish, energiya tejamkorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Uylarni isitish va sovitishdagi mavjud holat an'anaviy energiya manbalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Uylarni isitish va sovitishdagi mavjud holat an'anaviy energiya manbalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Uylarni isitish va sovitishdagi mavjud holat an'anaviy energiya manbalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Uylarni isitish va sovitishdagi mavjud holat an'anaviy energiya manbalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ekologik jihatdan qaysh, shamol, geotermal va biomassa energiyasi qayta

Shimoliy Amerika va Osiyoda ham keng tarqalgan. Avstriya, Germaniya, Shveysiya kabi mamlakatlarda passiv uylar qurilishi bo'yicha katta tajriba to'plangan.

Masalan, Germaniyadagi Passiv uylar instituti (Passivhaus Institut) bu sohada yetakchi tashkilot hisoblanadi va bunday uylarning standartlarini belgilaydi. Mamlakatda bu binolardan nafaqat turar joy sifatida, balki maktab, bog'cha, ofis va boshqa maqsadlarda ham muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ularning tajribasi ko'rsatadiki, passiv uylar an'anaviy binolarga nisbatan isitish va sovitish uchun 90 foiz kam energiya sarflaydi.

O'zbekiston iqlimi kontinental. Yozi issiq, qishi sovuq. Bunday sharoitda passiv uylar konsepsiyasi energiya tejamkorligini samarali usuli bo'lishi mumkin. Yurtimizda quyoshli kunlar ko'pligi quyosh energiyasidan passiv foydalanish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Biroq O'zbekistonda passiv uylar qurilishini keng joriy etishda bir qator muammolarni ham mavjud. Xususan, mahalliy bozorlarda yuqori samarali issiqlik izolyatsiyasi materiallari, germetizatsiya vositalari va maxsus derazalar narxi baland. Shuningdek, sohada malakali mutaxassislar yetishmaydi. Aholining bunday texnologiyalardan xabardorlik darajasi past va hozircha qurilish me'yorlarida passiv uylar standartlari mavjud emas.

Aktiv uylar energiya samaradorligi bo'yicha yana bir zamonaviy konsepsiya bo'lib, passiv uylardan farqli o'laroq, nafaqat kam energiya sarflaydi, balki qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalangan holda mustaqil ravishda

Prezidentimizning joriy yil 11-martdagi "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Jumladan, unga asosan, Chinoz va Oltiariq tumanlarida byudjet mablag'lari hisobidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (issiqlik nasoslari, quyosh panellari) hamda resurstejamkor uskunalaridan foydalangan holda to'rt qavatli uy-joylarni issiqlik energiyasi bilan barqaror ta'minlash, ularning energiya samaradorligini oshirish uchun issiqlik izolyatsiyasi bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni belgilab qo'yildi.

"Yashil" imtiyozli kreditlar hisobidan har bir viloyatda 100 tadan yakka tartibdagi uy-joyda energiya yo'qotishlarni kamaytirish uchun ularning tashqi va tom qismining issiqlik izolyatsiyasi, energiatejamkor oyna hamda eshik-romlarini o'rnatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari, energiya tejoychi uskunalarni o'rnatish loyihalari tajriba-sinov asosida boshlanadi. Biroq aktiv uylar barpo etilishi passiv uylar qurilishiga nisbatan ko'proq resurs (moliyaviy, moddiy, inson va h.k.) va zamonaviy texnologiyalarni talab etadi. Quyosh panellari, akkumulyatorlar va aqli boshqaruv tizimlari narxi yuqori bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, energiya narxi o'sib borishi va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari arzonlashishi aktiv uylar bida ham yaqin kelajakda kengroq tarqalishiga yo'l ochadi. Buning uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish choralarini kuchaytirish, mahalliy sharoitga moslashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va aholining bunday uy haqidagi xabardorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaymiz. Masalan, qurilish normalari, standartlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar va materiallar ishlab chiqarishni qo'llab-

"YASHIL" IMTIYOZLI KREDITLAR HISOBIDAN HAR BIR VILOYATDA 100 TADAN YAKKA TARTIBDAGI UY-JOYDA ENERGIYA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISH UCHUN ULARNING TASHQI VA TOM QISMINGI ISSIQLIK IZOLYATSIYASI, ENERGIYATEJAMKOR OYNA HAMDA ESHIK-ROMLARINI O'RNATISH, QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARI, ENERGIYA TEJOVCHI USKUNALARNI O'RNATISH LOYIHALARI TAJRIBA-SINOV ASOSIDA BOSHLANADI.



tiklanuvchi yoki deyarli tugamaydigan tabiiy resurslardan olinadi. An'anaviy yoqilg'i turlaridan ancha samarali.

Iqtisodiy jihatdan uy egalaringiz isitish va sovitish uchun energiyani mustaqil ravishda ishlab chiqarish imkoniyati markaziy tarmoqdan olinadigan energiyaga ehtiyojni kamaytirib, yoqilg'i xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi.

Konsepsiya va texnologiyasi qanday bo'ladi?

Bu borada passiv uylar konsepsiyasi samaradorlik eng ilg'or yo'nalishlaridan biridir. Uning asosiy maqsadi binoni isitish va sovitish uchun tashqi energiya manbalari qayta tiklanuvchi yoki butunlay barta'raf etishdir.

Passiv uylarda isitish va sovitish uchun asosiy energiya manbai binoning o'zida hosil bo'ladigan issiqlikdir. Ya'ni odamlar, maishiy texnika vositalari hamda quyosh nurning to'g'ridan to'g'ri tushishi hisobiga hosil bo'ladigan energiya shunga xizmat qiladi. Yuqori darajadagi izolyatsiya va germetizatsiya bu issiqlikni ushlab qolib, tashqi haroratning keskin o'zgarishidan himoyalaydi. Rekuperatsiyali ventilyatsiya tizimi esa havo almashinuvini ta'minlagan holda issiqlikni saqlashga yordam beradi.

Passiv uylar konsepsiyasi dastlab 1980-yillarning oxirida Germaniyada ishlab chiqilgan va keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida, shuningdek,

energiya hosil qiladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, o'zi iste'mol qilganidan ko'ra, ko'proq energiya ishlab chiqaradi. Bunga quyosh panellari va boshqa jihozlardan foydalanish orqali erishiladi. Ishlab chiqarilgan ortiqcha energiya akkumulyatorlarda saqlanishi yoki markaziy elektr tarmog'iga uzatilishi mumkin.

Dunyodagi birinchi aktiv uy Daniyada qurilgan bo'lib, u passiv uyning yuqori energiya samaradorligini qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanish bilan muvaffaqiyatli birlashtirgan. Bunday uy Yevropaning boshqa mamlakatlari, jumladan, Germaniya va Avstriyada ham qurilmoqda.

O'zbekistonning quyoshli iqlimi aktiv uylar konsepsiyasini qo'llash uchun juda qulay. Quyosh panellari o'rnatish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish va uyning energiyaga ehtiyojini qondirish mumkin.

Energiya iste'moli deyarli nolga teng bo'lgan namunaviy uy O'zbekistonda 2022-yilda Toshkent viloyatining Nurafshon shahridagi Yoshlik mahallasida BMT Taraqqiyot dasturi va Global ekologik fond (GEF) mablag'lari hisobidan qurilgan.

quvvatlash, aholining xabardorligini oshirish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish, malakali kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, ularni o'qitish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy tajribani o'rganish, namunaviy energiya samarador uy loyihalarni ishlab chiqishni ommalashtirish zarur.

Tahlillar ko'rsatadiki, O'zbekistonda uylarni isitish va sovitishda "yashil" energiyadan foydalanish hamda energiya samarador uylarni bunyod etish energetika sohasidagi mavjud muammolarni hal etish, alohida farovonligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Faqat energiya samarador uy-joylar qurilishiga kompleks yondashuv zarur. Bu nafaqat energiya resurslarini tejash, balki atrof-muhitni asrash va aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamdir.

Abdulahad NODIROV,
Makroiqtisodiy va
hududiy tadqiqotlar
instituti bosh mutaxassisi



YANGI O'ZBEKISTONNING O'ZGARAYOTGAN DEMOKRATIK QIYOFASI

Buyuk o'zbek yo'li

UNDA PARLAMENTNING O'RNI QANDAY?



Valisher DAVLYATOV,
Parlament tadqiqotlari
instituti direktori o'rinbosari

O'zbekiston yangi rivojlanish bosqichiga tobora shiddat bilan qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizning demokratik qiyofasi o'zgarib bormoqda. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy yangilanishlar yuz bermoqda. Eng muhimi, ushbu islohotlar zamiridagi "Inson qadri uchun" hamda "inson — jamiyat — davlat" kabi tamoyillar hayotimizga chuqur kirib boryapti. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar asosida inson qadri ulug'lash, xalqimizni o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadi turganiga barchamiz guvoh bo'lyapmiz.

Albatta, yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsad yo'lidagi shiddatli islohotlar natijadorligini ta'minlash, samaradorligini oshirishda parlamentning o'rni katta. Buni keyingi yillarda milliy parlamentimiz faoliyatidagi yangilanishlar misolida ham ko'rish mumkin. E'tiborli jihati, bu yutuqlar xalqaro darajada tan olinib, e'tirof etilmoqda. Shu yil 5-9-aprel kunlari Xalqaro Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley sessiyasi Toshkent shahrida o'tkazilishi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Binobarin, Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyo zaminida — aynan Toshkentda o'tkaziladi. "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusidagi xalqaro anjumanda 180 mamlakat, 15 kuzatuvchi davlat hamda 30 ga yaqin xalqaro va parlamentlararo tashkilotdan 2 mingga yaqin delegat ishtirok etishi kutilmoqda. Keling, shu o'rinda milliy parlamentimizning bugungi faoliyatiga bir nazar solsak.

QONUNLAR — HAYOTIY, UNING MUALLIFI — OLIJANOB XALQIMIZ

Huquqiy davlatni qonun ijodkorligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "O'zbekiston — huquqiy davlat" prinsipi mustahkamlandi. Bu esa qonunchilikning maqbuli, mukammalli, xalqchilligi va samaradorligini ta'minlash muhim ekanini ko'rsatadi.

Qonun ijodkorligi o'ziga xos murakkab usul va vositalar majmuidan iborat. Jamiyatda unga ehtiyojni aniqlashdan to qonunchilik hujjatini qabul qilish va ijrosini ta'minlashgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi.

Bugungi shiddatli islohotlarni huquqiy jihatdan to'laqonli ta'minlash maqsadida qonun ijodkorligi faoliyati ham takomillashib bormoqda. Chunki islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan to'laqonli ijodkorligi jarayoni sifatiga bevosita bog'liq.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida norma ijodkorligi sohasida o'ta dolzarb vazifalar turgani nazarda tutilib, quyi palataning qonun ijodkorligi borasidagi ishini sifatini yanada oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart", degan ustuvor tamoyil asosida qator yangi demokratik tartib-qoidalar joriy etilmoqda.

Parlament quyi palatasida qonun loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilmoqda. To'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi, ya'ni ijro etish uchun qo'shimcha hujjat ishlab chiqish talab etmaydigan qonunlarni qabul qilishga e'tibor kuchaytirildi.

Ayni vaqtda butun bir sohani tartibga soluvchi qonunchilik jarayoni qayta ko'rib chiqilmoqda hamda yaxlit qonunlar qabul qilinmoqda. Bu qonunchilik bazasining tizimliliigi va kompleksligini ta'minlamoqda.

Qonunchilik palatasi har bir qonun loyihasi bo'yicha xolis bahs-munozara va tortishuvlar maydoniga, chinakam "demokratiya maktabi"ga aylanib bormoqda. Qonun loyihalari muhokamasida tashabbuskor idoralar vakillari bilan birga soha ekspertlari, mutaxassislari va olimlar faol ishtirok etyapti. O'z fikrini bildirishi uchun ularga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugun Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyati ko'lami ham, ish hajmi ham yurtimizdagi islohotlarga hamohang. Jumladan, 2016-yilda 19 ta qonun qabul qilinib, Senatga yuborilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 97 tani tashkil etgani so'zimiz tasdiq'idir.

Qonun loyihalarini ko'proq Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalarida muhokama qilish amaliyoti qaror topmoqda. Ushbu amaliyot qonun loyihalarini tashabbuskor subyektlar vakillari, soha mutaxassislari, ekspertlar va olimlar ishtirokida har tomonlama ko'rib chiqqan holda maromiga yetkazish, shuningdek, qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarda saylovchilar manfaatini yanada to'liq ifodalash hamda ushbu qonunlarni hayotga samarali joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“

PREZIDENTIMIZ TASHABBUSI VA G'OYALARI ASOSIDA OLIY MAJLIS MAMLAKATNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH, XALQ HOKIMIYATINING CHINAKAM DEMOKRATIK TIZIMINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA MUHIM O'RIN EGALLAMOQDA. MILLIY SIYOSIY TIZIM HAMDA DAVLAT BOSHQARUVI ASOSLARINI DEMOKRATLASHTIRISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR PARLAMENTNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATINI YANADA KUCHAYTIRMOQDA.

Ayni vaqtda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosida o'tkazilayotgan islohotlar doirasida butun bir sohani tartibga soluvchi qonunchilik jarayoni qayta ko'rib chiqilmoqda va qator yaxlit qonunlar qabul qilinmoqda.

Norma ijodkorligi bugungi islohotlarni ro'yogba chiqarishning asosiy omili ekanidan kelib chiqqan, uni yanada takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega. Zero, qabul qilinayotgan qonunlarning har jihatdan mukammal bo'lishi xalqimiz farovonligini oshiradi, huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlashga hissa qo'shadi.

TA'SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va g'oyalari asosida parlamentning nazorat-tahlil faoliyati samaradorligini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda.

Ayni paytda yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida parlamentning nazorat faoliyati mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tahlillarga ko'ra, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning parlament faoliyati qismiga kiritilgan yangiliklarning aksariyati parlament quyi palatasining nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari, jumladan, nazorat funksiyalarini bajarishi chog'ida kuzatilayotgan parallelizm va bir-birini takrorlash holatlarini bartaraf etish maqsadida qayta ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis palatalarining nazorat faoliyatidagi parallelizm davlat organlari faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, nazoratning ta'sirchanligini pasaytiradi.



Yana bir muhim jihat mavjud. Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi davlat qarzining eng yuqori miqdorini belgilash ham kiritildi. Ushbu vakolat qonun normalari bilan tartibga solingan. Masalan, Oliy Majlisning davlat qarzining eng ko'p miqdorini belgilashga doir vakolati Budget kodeksida (152-moddada), "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonunda (4-moddada) mustahkamlab qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, davlat qarzining eng

inobatga olgan holda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Deputatlar o'z hududidagi Xalq qabulxonalarini bilan doimiy aloqa o'rnatdi hamda hamkorlikda fuqarolarning qabullari ham tashkil etildi. Bunday qabullarda birgina 2023-yili 12,5 mingdan ziyod fuqaro ishtirok etdi. Deputatlarning joylardagi ushbu faoliyati aholi va saylovchilarni o'ylantirayotgan, jamiyat oldida turgan muammo hamda kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etadi.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi deputatlari saylov okruglaridagi faoliyati davomida xalq deputatlari mahalliy kengashlari, ularning doimiy komissiyalari, partiya guruhlari hamda kengashlarda tuzilgan kotibiyatlarning faoliyati samarali yo'lga qo'yilishiga amaliy yordam ko'rsatib kelyapti.

Bu, o'z navbatida, Oliy Majlis palatalari hamda mahalliy kengashlarning hamkorligini yanada rivojlantirish, vakillik organi sifatidagi funksiyalarini to'laqonli bajarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK BOSH MEZONGA AYLANDI

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, ochiqlik va oshkorlik tamoyillarini qaror toptirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichidagi bu kabi islohot va yangilanishlarga hamohang tarzda ochiqlik va shaffoflik parlament faoliyatida ham bosh mezonga aylandi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda hamda YouTube videoxostingida "Oliy Majlis Qonunchilik palatasi" nomli rasmiy sahifalar ochilib, ular orqali Qonunchilik palatasi majlislari to'g'ridan to'g'ri yoritib borilmoqda.

Xalq vakillarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi saylovchilar bilan yanada yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, eng ahamiyatli, mavjud qonunchilikka o'zgartishlar kiritishda muhim o'rinni tutyapti.

Qonunchilik palatasi majlislari jonli efriga uzatilayotgan xalqimiz, kengjamoatchilikning quyi palatada qonun loyihalari muhokamasi va qabul qilinishi jarayoniga qiziqishini yanada oshirdi. Majlislarning to'g'ridan to'g'ri efriga uzatilishi natijasida jamoatchilik tomonidan Qonunchilik palatasida ko'rilayotgan masalalar yuzasidan ko'plab fikr va takliflar bildirilmoqda.

Ayni paytda Qonunchilik palatasida qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonida fuqarolarning fikrlarini inobatga olish yuzasidan mutlaqo yangi tizim shakllanyapti. Albatta, jamoatchilik tomonidan ilgari surilayotgan takliflar Qonunchilik palatasining norma ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim o'rinni tutmoqda. Deputatlar korpusi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilyapti.

XALQARO HAMKORLIK KUCHAYMOQDA

Xalqaro aloqalarni mustahkamlash va parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish Qonunchilik palatasi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Qonunchilik palatasining xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko'pqirrali hamda samarali hamkorligi izchil davom ettirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ayni yo'nalishda belgilangan ustuvor va muhim maqsadlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Natijada deputatlik korpusi mamlakatimizdagi keng ko'lmi islohotlar davrida Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, ochiq, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi hamkorlikka qaratilgan, vatanimiz milliy manfaatlarini himoya qilish hamda ilgari surishga asoslangan tashqi siyosiy yo'lning faol ishtirokchisiga aylandi.

O'zbekiston dunyodagi eng nufuzli xalqaro parlament tashkilotlari bo'lgan Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti parlament assambleyasi, MDH Parlamentlararo assambleyasi bilan samarali hamkorlik qilyapti.

Hozir Oliy Majlisda 58 ta davlat parlamentlari bilan parlamentlararo hamkorlik guruhlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu guruhlarning xorijiy davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish uchun doimiy muloqot maydoni vazifasini o'tayapti. O'z navbatida, chet ellik parlament vakillari bilan ochiq, konstruktiv va jonli muloqot olib borishning qulay mexanizimga aylanmoqda.

Bugun parlamentning faoliyat yo'nalishlariga yangi institut kirib keldi. Ya'ni mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish bo'yicha Oliy Majlis palatalari kengashlari tomonidan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, qator ishlar bajarilmoqda. Bunday institut xalq vakillarining mas'uliyatini yanada oshirish bilan birga parlamentni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

XULOSA O'RNIDA

Yangi O'zbekistonda milliy parlamentarizmning asosiy yo'nalishlari rivojlanishi mamlakatimizda ko'pmillatli olijanob xalqimizning xohish-istaklari, orzu-umidlari bilan mushtarakdir.

Prezidentimiz tashabbusi va g'oyalari asosida Oliy Majlis mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, xalq hokimiyatining chinakam demokratik tizimini shakllantirish borasida muhim o'rinni egallamoqda. Milliy siyosiy tizim hamda davlat boshqaruv asoslarini demokratlashtirishga qaratilgan tashabbuslar parlamentning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rini va ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Parlamentning muhim va mustaqil institut sifatidagi faoliyati mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash, chinakam huquqiy davlatni shakllantirish, mamlakatda konstruktiv va bunyodkorlik muhitini yaratish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

“MAMLAKATNING BIRGINA CHEKKA TUMANIDA AYOLLARGA SHAROIT YARATISH, YELKADOSH BO'LISH, OG'IRINI YENGIL QILISH, MEHNAT BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI ISHLARDAN BIR SHINGIL. MUHIMI, BU AYOL-QIZLAR BUGUNIDAN MAMNUN, ERTASIDAN XOTIRJAM.



Hududlar hayoti

TADBIRKORLIKDA PUL YO'QOTISH MUMKIN, ammo VAQT va IMKONIYATNI EMAS

Davlatimiz rahbari Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda “Bir haqiqatni barchamiz yaxshi tushunib olishimiz zarur. Ayollarning tashvish va mashaqqati ham, zimmasidagi mas’uliyati ham erkaklarga nisbatan ancha yuqori. Uy-ro’zg’or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib, ta’lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug’ullanayotgan xotin-qizlar zamonamizning haqiqiy qahramonlari, desak, to’g’ri bo’ladi. Yangi O’zbekistonda xotin-qizlarning og’irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarda zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi”, degan edi.

Darhaqiqat, shunday. Ayol-qizlar bandligini ta'minlash, ta'lim olishi uchun grant va imtiyozlar berish, kasb-hunarga o'rgatish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish, farovonligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini hayotga ichkil tatbiq etishda ham ayol-qizlar, albatta, qo'llab-quvvatlayapti. Natijada tumanidagi barcha mahallalarda tomorqachilik, issiqxonachilik, chorvachilik, quyonchilik, parrandachilik, asalarichilik kabi sohalarda bo'yicha tadbirkorlik qilayotgan, daromad topayotgan ayollar soni avvalgi yillardagiga qaraganda ikki barobar ko'paygan. Sho'rchi tumanidagi Sovjironbobo mahallasida yashovchi Gulsoat Kunarovaning

asli kasbi o'qituvchilik. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan Gulsoat opa bir necha xotin-qizning ish bilan bandligini ta'minlagan.

“ Bir qaraganda ayolning faoliyati kichik va ahamiyatsizdek tuyuladi. U 5 yildan buyon oddiy yog'ochdan eksportbop mahsulotlar joylanadigan quti tayyorlab keladi. Bir kunda o'rtacha 200 ta yashik yasaydigan tadbirkorning daromadi ishiga mos.



— Tadbirkorlik bilan shug'ullanishga avvaldan qiziqib yurardim, — deydi Gulsoat Kunarova. — Bu niyatimga 2021-yilda erishdim. Yashik yasashni aprelda boshlab, noyabrda tugatdim. Doimiy 5, mavsumiy 15 ayolning bandligini ta'minlaganmiz. Yog'och qutilarni olma, shaftoli, limon, nok, uzum, o'rik joylash



tuga yetgan. Bu yerda ishbilarmonlik muhitini shakllantirish bilan birga aholi bandligini ta'minlashga ham erishilyapti. Fuqarolar tomorqadan samarali foydalanib, o'zining bandligini ta'minlayotgan. Sho'rchi tumani Bo'ston mahallasida yashovchi Sayram Alimardonova ham tadbirkorlik

— Nisholda, holva tayyorlash otabobolarimizdan qilgan hunar. Ramazon oyida har kuni 200 kilogramm nisholda va holva tayyorlayapmiz. Tayyor mahsulotlarimizni bozorga, yaqin atrofmizdagi savdo shoxobchalariga yetkazib beramiz, — deydi Zefina Qodirova. — Nisholda otabobolarimiz

“ — Kredit evaziga dastlab 15 ta qo'y olgandim. Ko'pchilik chorva boqish qiyin masala deb cho'chitgandi. Ishlarsa, ishga mehr bersa, eplasa bo'larkan. Hammasini o'zim bajaraman. Hozir qo'ylarim soni 50 boshga yetdi, — deydi Nodira Xudoyqulova.

Bular mamlakatning birgina chekka tumanida ayollarga sharoit yaratish, yelkadosh bo'lish, og'irini yengil qilish, mehnat bilan bandligini ta'minlash borasidagi ishlardan bir shingil. Muhimi, bu ayol-qizlar bugunidan mamnun, ertasidan xotirjam. Oilasi farovonligi, ro'zg'ori to'kinligiga erishish yo'lida sabot bilan mehnat qilaypti.

Sarvar TO'RAYEV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

ILDIZ QIRQILMASA, QURUQ TANA KURTAK YOZAYERADI

Yetakchi xalqaro tashkilotlar tahliliga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yashirin iqtisodiyotga barham bergan holda YIMni kamida 30 foiz oshiradi. Xalqaro amaliyotga ko'ra, bugungi raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar bilan cheklanib qolmay, hayotning barcha jabhalari, xususan, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, qurilish, energetika, qishloq xo'jaligini qamrab olgan. Qolaversa, suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv hamda turli internet-bankingga tez kirib, boshqa sohalarni ham qamrab olayotgani, ularning har birida yuqori natija ko'rsatib kelayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.



Murod TURG'UNOV, Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlar doktori

joriy qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt sohasida katta amaliy tajribaga ega hamda undan faol foydalanayotgan yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash vazifalari qo'yildi. Prezidentimizning 2024-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellektni ishga solish zarurligini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni belgilash maqsadida Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini

muqaddatda ko'pchilik yurtdoshlarimizni qiyin kelgan bank-moliya, ta'lim, davlat xizmatlari kabi aksariyat yo'nalishlarda korruptsiyani jilovlashga erishildi. Mohiyatan korruptsiya poraxo'riik, o'zlashirish va pul mablag'larini qaytarishni o'z ichiga olgan, lekin ular bilan cheklanmagan qasddan qilingan harakatdir. Korruptsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqaidan shaxsiy yoxud o'ziga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir. Korruptsiya deyarli barcha davlatlarda mavjud. U demokratik va nedomokratik davlatlar, jamiyatlarga xos muammodir. Faqat shakllan o'zgarishlar mavjud. Usul va vostalarda juz'iy tafovutlar kuzatiladi. Biroq inqiroz mohiyati bir xil. Mazkur huquqbuzarlik odamlarning hayot ta'minlash vazifalari qo'yildi. Korruptsiya deyarli barcha davlatlarda mavjud. U demokratik va nedomokratik davlatlar, jamiyatlarga xos muammodir. Faqat shakllan o'zgarishlar mavjud. Usul va vostalarda juz'iy tafovutlar kuzatiladi. Biroq inqiroz mohiyati bir xil. Mazkur huquqbuzarlik odamlarning hayot ta'minlash vazifalari qo'yildi. Korruptsiya deyarli barcha davlatlarda mavjud. U demokratik va nedomokratik davlatlar, jamiyatlarga xos muammodir. Faqat shakllan o'zgarishlar mavjud. Usul va vostalarda juz'iy tafovutlar kuzatiladi. Biroq inqiroz mohiyati bir xil. Mazkur huquqbuzarlik odamlarning hayot ta'minlash vazifalari qo'yildi.



sohada bilim va ko'nikmasini oshirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilgani; beshinchisi, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq bo'yicha aholing huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari samaradorligi. Har bir reyting yo'nalishi bo'yicha tegishli ko'rsatkichlar indikator belgilanib, har biri yil oxirida aniq baholanadi va unda bevosita sun'iy intellektdan foydalaniladi. Ya'ni O'zbekistonda elektron kuzatuv odatdagi holatga aylanib, davlat va jamiyat boshqaruvinu ancha yengillashtiradi. Bevosita korruptsiya munosabatlarini fosh qilishda asosiy ahamiyatga ega vositaga aylanadi. Mutasaddilarga sun'iy intellekt asosida aholing savollariga qo'l telefoni orqali sodd javob beradigan onlayn platformani ishga tushirish topshirig'i berildi. Fikrimizcha, ushbu onlayn platforma yurtdoshlarimizning iqtisodiy-huquqiy bilimi oshishi, ayniqsa, raqamli makonda turli fribgarliklarning oldini olishga zamin yaratadi. Umuman olganda, har bir sohani raqamlashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishga asos bo'ladi. Buni birgina oliy ta'lim tizimidagi yangilanishlarda ham ko'rish mumkin. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “bundan 7-8 yil avval oliygohlarga o'qishga kirishda “tanish-bilishchilik” avj olgan edi. Soha raqamlashtirish, imtihonlar onlayn translyatsiya bo'lyapti. Avval test topshirib, to'plangan balga qarab, keyin oliyog'ihni tanlash tizimi joriy qilindi. Oliy ta'limda 35 turdagi hujjatlar inson omilisiz olishga o'tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 barobar kamaydi. Yoki yemi hakim qarori bilan ajratish amaliyotidan to'liq voz kechilib, yer ajratish auktsion tizimiga o'tgani natijasida bu tizimda ham ilgari kuzatilgan “tanish-bilishchilik”, “oldi-berdi” kabi korruptsiyon holatlarga chek qo'yildi. Boshqacha aytganda, tizimda adolat ta'minlanib, xalqchil bo'ldi. Mazkur illatni yo'q qiluvchi eng samarali vosita iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Sun'iy intellekt, virtual neyron tashlar (kanallar) va raqamli vostalar makoni o'zining muqarrar ijobiy samarasini namoyon qilib, jamiyatimizni poraxo'rlikdan tozalaydi. Manfaatlari to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik ham korruptsiyaning oldini olishda eng muhim tadbir sifatida ko'rinishi kerak. Adolati ish haqi, munosib turmush sharoiti, kadrlarni tanlash, tayinlashda meritoriklariya hayotimizning tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Binobarin, korruptsiyaning ildizi qirilmasa, quruq tanasi vaqt o'tib, kurtak yozaveradi.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Prezidentimiz Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida bu jihatga alohida e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga obyektiv baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi. Davlatimiz rahbari korruptsiya islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekanini ta'kidladi. Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asosi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Xususan, Asosiy qonunimizning 93-moddasida O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlariga kiritilgan. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlari ishida ochiqlik va shaffoflik, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ular faoliyatida korruptsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ularidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'rish borasida Vazirlar Mahkamasining vakolati belgilanib, konstitutsiyaviy darajada bu illatga qarshi murosasiz kurashish belgilab qo'yilgan. Keyingi sakkiz yilda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Haqiqatan, ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati eng yuksak bahoga munosib. Tan olish kerak, ana shunday sharafli kasb egalari yaqin o'tmishda yetarlicha hurmat-e'tibor ko'rsata olmadik. Qaysi sohaga qo'shimcha ishchi kuchi kerak bo'lsa, birinchi navbatda, o'qituvchi-pedagoglar jalb etiladigan bo'lib qolgan edi.

TA'LIM-TARBIYA

BARHAMIZDAN HAMJIHATLIK, FAOLLIK, FIDOYILIK TALAB ETADI

Yangi islohotlar boshlangan ilk kunlardanoq ana shu og'riqli masalani hal etishga — o'qituvchilarni, bolalar va ayollarni majburiy mehnatdan xalos qilishga kirishildi. Prezidentimizning qat'iy irodasi va intilishi bilan bu noxush holatlar bugun tarixga aylandi. Davlatimiz rahbari o'tgan yili O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan muloqotida vatan va xalq manfaatini uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor ariflarni zahmatkash, jonkuyar ustozlar tarbiyalashini ta'kidlagan, buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy jihatdan himoyalangan va yetarli ta'minlangan bo'lishi kerakligiga urg'u bergan edi.

Dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib boradigan, o'ta murakkab bir davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasi, o'qituvchi mehnatining tub mohiyatini tashkil etadi.

Yoshlarimiz bilim olishi uchun barcha sharoitni yaratish, o'quv binolarini qurish, zamonaviy jihozlash mumkin. Lekin farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash juda katta mehnat va mas'uliyat talab etadi.

Bolalar nafaqat o'zi ulg'ayayotgan oilaning, balki yurtning kelajagidir. Bugun yoshlarimiz barcha sohada yuksak natijalarga erishmoqda. Bu o'qituvchilarning nufuzi va maqomi oshgani, maktab hamda maktabgacha ta'limga qaratilayotgan ulkan e'tibor samarasidir. Eng asosiysi, bu zahmatkash, fidoiy insonlar mehnatini munosib rag'batlantirish uchun bor kuch va imkoniyatdan foydalanilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 40 foizini 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etadi. Ularga ta'lim-tarbiya berish uchun



yurtimizda 10 ming 163 ta maktab, 31 ming 139 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va 6 ming 919 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Eng muhimi, ushbu muassasalardagi sharoitni yaxshilash, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish doimiy e'tibordir. Hozir o'z ustida astoydil ishlagan, xorijiy sertifikat olgan 6 ming o'qituvchi 10 million so'mdan ziyod maosh olmoqda. O'qituvchilarga mahorati va erishgan yutuqlariga qarab to'lanadigan ustamaralar soni 3 tadan 17 taga oshirildi.

Muallimlarni qo'llab-quvvatlash, mehnatini munosib rag'batlantirish izchil davom ettirilmoqda. Xususan, xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish yo'lga qo'yildi. Hukumatning tegishli qaroriga ko'ra, malaka toifasi test sinovlarida ishtirok etib, oliy va birinchi malaka toifasiga erishgan hamda 86

hamda undan yuqori ball to'plagan pedagoglarga 70 foiz ustama berilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirishga doir muhim vazifalar belgilangan. Zero, bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlariga to'liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmasini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash bugunning dolzarb vazifalaridir.

Muhim masalalardan yana biri — umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib

chiqish. Ayni maqsadda 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun mingta multimedial dastur yaratish borasidagi vazifalar belgilangan.

Strategiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtaacha ish haqini 2 barobar oshirish vazifasi ham qo'yilgan.

Prezidentimizning joriy yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sohada islohotlarning yangi bosqichini boshlab berish bilan birga Maktabgacha va

maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman bo'limlari xodimlarini rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

Farmonda maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimiga yuqori salohiyatli kadrlarni jalb etish, islohotlarning eng quyi tizimgacha yetib borishini ta'minlash, tizim xodimlarini munosib rag'batlantirish hamda vertikal boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish orqali sifatli ta'limga erishishga doir qator vazifalar belgilandi.

Huquqiy-me'yoriy hujjatda sifatli ta'lim berishda mamlakat, hudud, tuman va shahar darajasida yaxlit vertikal boshqaruv tizimini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bo'lim boshlig'i Gulbahor Parpiyeva. — Bunda ta'limning barcha darajasidagi boshqaruv tuzilmalariga yuqori salohiyatli, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakaga ega tashabbuskor kadrlarni jalb qilish orqali ularni munosib rag'batlantirib borish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi direktorlik lavozimiga menejerlik, ya'ni boshqaruv qobiliyatiga ega nomzodlar saralab olinadi. Sifatli ta'lim olishi, zarur bilim va ko'nikmalarni egallashi uchun o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan baholash monitoringi yo'lga qo'yiladi.

Farmonda tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish hamda ularga malaka toifasi berishning yangi tizimi joriy etilishi, tashkilotlar faoliyatini raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Huquqiy-me'yoriy hujjatga ko'ra, tuman va shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzuridagi maxsus ta'mirlash-



eksploatsiya xizmatidan 810 ta shtat birligini maqbullashtirish hisobidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning hududiy va tuman, shahar bo'limlari jami boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 5002 nafarga yetkaziladi. Vazirlik, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman, shahar bo'limlari xodimlarini ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish tizimi joriy etiladi.

Bugun tizimda 10 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, 7 mingga yaqin bog'cha mudirasi, 35 mingdan ortiq direktor o'rinbosari faoliyat yuritmoqda, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi departamenti boshlig'i Ilhom Sirojov. — 2025-yil 1-sentabrdan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori lavozimining bazaviy tarif stavkasi 20 foiz oshirildi. Bu degani, qo'shimcha to'lovlar bilan birga maktab direktori 10 million so'mgacha maosh oladi.

Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosari lavozimining bazaviy tarif stavkasi 15 foiz, I va II guruhga kiruvchi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimining bazaviy tarif stavkasi tegishli III va IV guruhdagi umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktori o'rinbosari lavozimining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtirildi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'qituvchilarga e'tibor va rag'batdan xursand bo'lyapman, — deydi Uchtepeta tumanidagi 109-maktab direktori Gulchiroy Imomaliyeva. — Davlatimiz rahbarining tegishli farmonida ko'zda tutilgan rag'batlantirishlar biz uchun juda quvonchli holat bo'ldi. Farmondagi biz uchun foydali va muhim yana bir jihati aytib o'tish lozim. Bu — umumta'lim maktablari direktorlari va o'rinbosarlarini menejerlik o'quv kurslarida o'qitish masalasi. Biz mazkur imkoniyatdan to'laonli foydalanib, muvaffaqiyatli o'tsak, oylik ish haqimiz 50 foiz oshirildi.

2026-yil 1-yanvardan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining direktor jamg'armasi mablag'i hisobidan direktor va o'rinbosarlariga faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) natijasiga ko'ra, bazaviy tarif stavkalariga nisbatan tegishli 20 va 10 foiz miqdorida har oylik ustamaralar belgilandi.

Ushbu farmon maktabgacha va maktab ta'limi sohasi xodimlarini munosib rag'batlantirish, vertikal boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish orqali yurtimizda sifatli ta'limga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BESH TASHABBUS OLIMPIADASI

ham AQLIY, ham JISMONIY CHINIQISH MANBAI



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Islohotlar amalda

BESH TASHABBUS OLIMPIADASI

Mahallamizdagi bolalar maydonchasi atrofidagi o'rindiqalarda o'tirsam, 5-6 bola koptok ko'tarib kelib qoldi. Ular xuddi oldindan o'rgatilgandek, mustaqil turli mashqlar bajarishni boshladi. Bolalarning mashg'ulotlarini kuzatib turdim. O'zaro suhbatlarida "musobaqa" degan so'zni bir necha bor takrorladim. Ularning qanday musobaqaga tayyorlanayotgani bilan qiziqdim. Keyin bilsam, 2022-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan, asosiy maqsadi yoshlarning intellektual, ijodiy va sport salohiyatini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faollikka jalb etish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan "Besh tashabbus olimpiadasi"ga tayyorgarlik ko'rayotgan ekan. Ayniqsa, mazkur olimpiada doirasida o'tkaziladigan sport musobaqalari xalqimiz orasida ancha ommalashdi.

Ilgari mahallaning ayrim joylarida uy qurish uchun ajratilgan, ammo bino tiklanmagan maydonchalar bo'lardi. Ko'rinibidani o'nqir-cho'nqir bo'lsa-da, biz ularda beamon futbol o'ynardik. Egallari kelib quvib yuborsa, xuddi shunday boshqasiga borardik. Shu zayilda ko'chib-ko'chib, kun kech bo'lardi. Biroq

hech kim mahalla bolalari uchun futbol maydoni qurib berishga harakat qilganini eslay olmayman.

O'sha futbol o'yinlarining qoidalari ham juda oddiy bo'lardi. Darvozalar cho'pdan, maydon chiziqchalarining o'zi yo'q. O'zimizga o'zimiz hakam. Biroq shunday sharoitga qaramay,

ayrim tengdoshlarimiz koptok bilan shunday san'atkorona muomala qilardiki, balki o'sha bolalarga kimdir o'z vaqtida e'tibor berganda, bugun mashhur sportchi bo'lardi. E'tibor yo'qligi, iqtidorlarga befarqlik tufayli hech biri sport sohasidan ketmadi.

Hozir qishloq'imizga boring. Vaziyat, sharoit butunlay o'zgarib ketgan. Oxirgi marta sanaganimda futbol maydonchalarining sonining o'zi 3 ta edi. Buni nega taqqosladik? Bugun bolalarni sportga qiziqtirish, chiniqtirishga munosabat alohida tizimga aylanayapti. Maktablardagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari dam olish kunlari mahalla bolalarini to'plab, futbol o'ynatayapti, qo'shni mahalla bolalari

bilan bellashuvlar tashkil qilyapti. Yuqorida aytganimiz — "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalariga olib chiqib, iqtidorlarni kashf etyapti. Shubhasiz, bularning barchasi ortida aholining jismoniy salomatligiga e'tibor va sportni rivojlantirish uchun yaratilayotgan sharoitlar turibdi.

Darhaqiqat, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgirdi. Yoshlarning sport bilan shug'ullanishi nafaqat ularning sog'lig'ini mustahkamlash, balki shaxsiy intizom, irodaviy sifatlarini hamda jamoaviy ishlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, 2024-yilda o'tkazilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" qamrovi kutilganidan ham ziyodroq bo'ldi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" 26 ta loyihani o'z ichiga oladi. Loyihalarining 13 tasi tanlov bo'lsa, 13 tasi sport musobaqasi hisoblanadi. O'zbekistonda yashovchi 14-30 yoshdagi barcha yoshlar bu musobaqalarda ishtirok etishi mumkin. O'tgan yili olimpiada beshta asosiy yo'nalish bo'yicha o'tkazildi.

Birinchi, mahallalar darajasida. Bunda mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar uchun sport musobaqalari tashkil etilib, ularning jismoniy faolligini oshirish asosiy maqsad edi. Ikkinchi, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilib, talabalar uchun maxsus sport dasturlari ishlab chiqildi. Uchinchi, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bellashuvlar. Bunda ham kasb-hunar maktablari va texnikumlar o'quvchilari orasida sportni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratildi. To'rtinchi, maktab o'quvchilari orasida o'tkazilib, bunda bolalarni yoshligidan sport bilan shug'ullanishga rag'batlantirish, maktablarda sport mashg'ulotlarini kengaytirish asosiy maqsad qilib olindi. Keyingisi davlat idoralari va tashkilotlar xodimlari o'rtasida. Bundan ish joylarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xodimlarning jismoniy holatini yaxshilash maqsadi ko'zlandi.

Shuningdek, qo'shimcha ravishda kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar o'rtasida

ham musobaqalar bo'lib o'tdi. Musobaqalar 5 bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich qatnashchilarga o'z mahoratini namoyish etish, jamoaviy iroda shakllantirish hamda keyingi bosqichga yo'l olish imkonini berdi. Mahalla bosqichida g'olib bo'lganlar tuman bosqichiga, tuman bosqichidan viloyat bosqichiga, bunda g'olib bo'lganlar esa respublika bosqichiga shaffoflik asosida bellashdi. Finalda eng kuchli sportchilar aniqlanib, ularning natijalari e'tirof etildi.

Musobaqalar davomida mini-futbol, voleybol, shaxmat, stol tennis, yengil atletika hamda gimnastika kabi sport turlariga alohida e'tibor qaratildi.

Barcha sport tadbirlari yoshlar orasida qizg'in raqobat ruhida o'tib, ularga nafaqat sport mahoratini oshirish, balki inoqlikda harakat qilish va o'z maqsadiga erishish yo'llarini ham o'rgatdi. Shuningdek, jamiyatimizning to'laonli a'zolari hisoblangan, biroq nogironligi bo'lgan yoshlarimiz orasida ham parolimpiya sport turlariga kiradigan turlar bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi.

Yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga undash maqsadida respublika bo'yab qator infratuzilma loyihalari amalga oshirildi. Jumladan, mahallalarda yuzlab yangi sport maydonchalari barpo etildi, o'quv muassasalarida sport mashg'ulotlari uchun sharoitlar yaxshilandi. Shuningdek, aynan shu musobaqalar turki bo'lib, davlat tashkilotlari va idoralarda sport musobaqalarini o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"da 2023-yilda 6,4 million yosh musobaqalarda ishtirok etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 10 milliondan oshdi. Ushbu natijalar yoshlarning "Besh tashabbus olimpiadasi"ga qiziqishi ortib borayotganini yaqqol isboti, desak adashmaymiz.

Xo'sh, bu 10 million ishtirokchi kimlar edi? Raqamlarni yo'nalishlar kesimida ko'rib chiqsak. 2024-yilda "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalari doirasida mahallalardan 5,5 million, maktablardan 3,2 million, oliy ta'lim muassasalaridan 430 mingdan ortiq hamda professional ta'lim muassasalaridan 181 ming yosh ishtirok etdi. Shuningdek, tashkilot va idoralari xodimlari orasidan ishtirok etganlar soni 380 mingdan oshdi. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda maktab o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda ham 200 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashgani quvonarli bo'ldi.

Kelgusida yoshlarni yanada sportga faol jalb etish, ular uchun yangi dasturlarni ishlab chiqish, intellektual, ijodiy salohiyatini oshirish hamda jismoniy tarbiya infratuzilmasini kengaytirish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, musobaqalar qamrovini yanada kengaytirish, ularning turli yo'nalishlarini rivojlantirish va yoshlarning sport va intellektual sohalarida muvaffaqiyat qozonishi uchun keng imkoniyatlar yaratish ustida ishlanmoqda. Bularning natijasida 2025-yilda ishtirokchilar sonini 12,5 milliondan oshirish maqsad qilingan.

Ommaviy sport nafaqat jismoniy sog'liqni yaxshilash vositasi, balki yoshlarni yomon odatlardan saqlash, muloqot qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatga foydali inson sifatida shakllanishiga ko'maklashuvchi muhim omildir.

To'g'risi, ilgari odamlar orasida gapirishga, jamoaviy harakat qilishga juda imyanar edim, — deydi chirchiqlik Sarvarbibi Ro'zmetova. — Aynan "Besh tashabbus olimpiadasi" o'yinlari tufayli menda shu nuqsonlar yo'qoldi, desam adashmayman. Bu musobaqalar shunchaki sport mashg'ulotlari emas, yoshlarni yagona maqsad yo'lida birlashtiradigan tashabbusdir. Shu musobaqalar tufayli bugun men hamisha muloqot qilib turadigan do'stlar ortirdim, fikrimni ifodalashni o'rgandim. Musobaqalar mavsumining yakunlanishi men uchun qanchalik tushkunlik bag'ishladi, yangi mavsumning boshlanishi shunchalik xursand qiladi.

Joriy yil mart oyidan boshlab "Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2025-yilgi mavsumi start oldi. Mas'ullarning aytishicha, yangi mavsumda yangiliklar ko'p. Bularning barchasi yil davomida kelib tushgan takliflar natijasida amalioyotga joriy etiladi. Yoshlar ishlari agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab har bir umumta'lim maktabida bosqichma-bosqich sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yiladi. Bu klublar o'quvchilarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, maktablarda 5-11-sinf jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun maxsus o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi. Bu qo'llanmalar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2025-yilgi mavsumida yoshlar o'rtasida jami 19 ta tanlov va musobaqa tashkil etish ko'zda tutilgan. Bunda madaniyat va san'at yo'nalishida 2 ta, sport yo'nalishida 14 ta, axborot texnologiyalari yo'nalishida 1 ta, kitobxonlik va intellektual yo'nalishda 2 ta, kasb-hunar yo'nalishida 5 ta tanlov va musobaqa tashkil etiladi. Yoshlardan esa talab etiladigan musobaqalarda faol qatnashish hamda jismoniy va intellektual salohiyatini oshirishdir.

Jonibek ERKINOV,
jurnalist

MA'NAVIY QALQON

XALQPAPVAR DAVLAT, ERKIN VA OBOD JAMIYAT POYDEVORI

Shu kunlarda yurtdoshlarimiz qalbiga tetiklik, ma'nani uyg'otqil va yashashga cheksiz shijoat ruhini singdirgan Umid va Ishonch kayfiyati doimgidan kuchli. Bu tabiatning "me'mor" fasli — ko'klam shukhi bilan ham bog'liq. Bahorning, shubhasiz, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik va bunyodkorlikka ilhomlantiruvchi mo'jizaviy qudrati bor. Dalalar mayсалar iforidan, gullar tarovatidan shukuhlanib, bezavol qaddini qayta tiklaydi. Daraxtlar kurtak yozib, har bir kunning g'animatligi, uni behuda yumushlarga emas, ezgu, xayrli ishlarga sarflash lozimligini yodga tushiraveradi.



Maqsud ASADOV, filologiya fanlari doktori, professor

"DEHQONKI, DONA SOCHAR..."

Bobodehqon zamin ko'ksiga urug' qadadi — tiriklik naqshini soladi. Elni farovonlikka, dilni nekbin orzu-havaslariga to'ldiradi. Dasturxon to'kisligi, oila farog'ati, xalq farovonligi uning mehnti samarasiga, hosilining barakasiga bog'liq. Shu bois, ona xalqimiz azaldan dehqon peshonasidan tongan har qatra teri zarga tenglashtirgan. Aslida, qadimda "dehqon" so'zi ancha keng ma'noda ishlatilgan: el-yurt egasi, katta yer sohibi, oila boshlig'i va hokazo. Uning xatti-harakati, zahmatu mashaqqatlash tikandan qol, sahradan chaman barpo qilish imkonidir. Bahor kelishi bilan dehqonga quvvat, yerga baraka, xalqqa shijoat deb duolar qilinishi ham bejiz emas. Chunki barakasi borming daromad bo'ladi. Daromad bo'lgan joyda o'sish va o'zgarishlar bo'y ko'rsatadi. Bugun ona yurtimiz ana shunday buyuk yuksalishlar bo'sag'asida viqor bilan qad rostlab turibdi.

Uyg'onish ayomi — ko'klam mohiyatida aks etgan jo'shqin va ishchan ruhiyat, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar va jadal o'zgarishlarning asl mazmuni va ezgu g'oyalari hamohangdir". Qalb tozaligi, ko'ngil musaffoligi, tinchlik, osudalik, oila xotirjamligi — bebaho ne'mat. Inson borlig'ini quvonchga to'ldirib, do'stlaru yaqinlar davrasiga xursandchilik ulashadigan go'zal hislar mehnatning rohatini tuyish bilan bo'ladi. Bugun jonajon vatanimiz "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyillar asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. "Inson — jamiyat — davlat" va "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyillar jamiyat hayotining har bir jabhasiga chuqur kirib bordi. Inson manfaatlari, turmush farovonligi, oilasi mustahkamligi yo'lida amalga oshirilayotgan qator islohotlar samara bermog'da. "Tomorqa — qo'shimcha daromad manbai" g'oyasi qishloq xo'jaligida tafakkur tarzining, ishtiyiq va g'ayratning mutlaqo ijobiy o'zgarishlariga olib kelayotgani rost. Xalqimiz mamlakatimizdagi yangilanish jarayoniga juda katta ishonch bilan qarayotgani har qadamda yaqqol sezilib turibdi.

Ayni paytda yangi O'zbekiston tom ma'noda bunyodkorlik timsoliga aylandi. Shaharlarimiz, qishloq va ovullarimiz yangicha qiyofa kasb etib, zamonaviy ko'rinishini dunyoga ko'z-ko'z etmog'da. Eng muhimi, islohotlarning natijasini har bir inson, har bir oila o'z kundalik hayotida teran his etmog'da. Bu, jumladan, "har bir oila — tadbirkor", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va bag'rikenglik" kabi qator tamoyillarda o'z ifodasini topgani ayni haqiqat. Kambag'allikni qisqartirish, muhtoj oilalarni

daromadlilar qatoriga qo'shishga qaratilgan sa'y-harakatlar esa davlatimizning odilona siyosati natijasidir. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil — bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda aniq maqsad sari harakat qilishidir. Mamlakatimizda buning uchun huquqiy asos yaratilgan. Aniqlik, har bir hududning iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda muammolarga yechim topilmog'da.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi va madaniyatlar chorrahasida joylashgan, turli millat va elat vakillari istiqomat qiladigan bag'rikeng davlat. Yurtimizda o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman kabi tillarda faoliyat yuritadigan ta'lim maskanlari, ommaviy axborot vositalari mavjud. Ular orqali har bir millatning tili, madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini targ'ib qilishga, yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratilgan.

Bugun O'zbekiston dunyoga yuz ochdi. Bir necha o'nlab davlatlar bilan vizasiz tizim asosida yaqin qo'shnichilik, o'zaro bordin-keldi aloqalar yanada mustahkamlandi. Natijada yil sayin yurtimizga kelayotgan sayyohlar oqimi ko'paymog'da. Turizmning yangi "ziyorat turizmi", "ekoturizm", "adabiy turizm" singari ko'rinishlari yuzaga keldi. Dunyo xalqlari bilan bir necha yo'nalish: ijtimoiy, madaniy, ilmiy, ma'rifiy sohalarida aloqalar kengayib, jahon maydonida salohiyatimizni yuzaga chiqarish uchun qulay sharoit yaratilmog'da. Yaqin qo'shnilarimiz bilan hududiy muammolar yechimi topildi. O'zaro qavm-qarindoshlik, birodarlik rishtalari yanada mustahkamlandi. Qadimiy Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining uch tomonlama uchrashuvi esa mana shu yo'ldagi yana bir amaliy qadam bo'ladi. Haqiqatan, ayni paytda mintaqamiz do'stlik, qardoshlik va hamkorlik makoniga aylanib bormog'da.

O'zbekiston — inson manfaatlari ustuvorligi ta'minlangan beqiyos diyor. Ijtimoiy davlat tamoyili asosida qilingan ishlar ham ko'ngilda surur va iftixor uyg'otadi. Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlash, jamiyatning yordamga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashga



sadoqatda, yutug'imiz — o'zimizga bo'lgan yuksak ishonchimizda!"

Bu so'zlar yangi O'zbekistonimizning qalblarni ilhomlantiruvchi shioridir.

YANGI O'ZBEKISTONNING ILG'OR VA QUDRATLI KUCHI

O'z kuch va imkoniyatini to'g'ri yo'naltirgan, irodasi mustahkam, e'tiqodi butun davlat va millatiga taraqqiyotning zalvorli yo'lidan dadil odimlay oladi. Bu yo'lda qudratli safda turadigan yoshlarga katta ehtiyoj borligi ayon. Shubhasiz, yoshlik — umr faslining navbahori! Orzular

Darhaqiqat, borlig'ida shijoatu g'ayrat jo'sh urgan, qalbi yurt, millat muhabbati bilan to'lib-toshgan haqiqiy vatanparvar yoshlar erangi kumimizning chinakam egalari. Jonajon vatanimizda tashabbusni qo'lga olib, yangi zafar, muvaffaqiyatlar sari shaxdam qadam bosayotgan yoshlarimiz yangi O'zbekistonning ilg'or va qudratli kuchidir. Prezidentimiz aytganidek, "Bugun mamlakatimizdagi yuqori texnologik korxonalar boshqarayotganlar — asosan bilimlari va malakali yoshlarimizdir. Tadbirkorlik rivojiga yangi kuch va shiddat berayotgan ham aql-idrokli, serg'ayrat va ishbilanmon o'g'il-qizlarimizdir. Sarhadlarimizda doimo sergak turgan askar va ofitserlar ham mard va jasur o'g'lonlarimizdir. Ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarida Vatanimizni dunyoga tarannum etayotganlar ham yoshlardir. Xususan, yurtimizni jahonga mashhur qilishda yosh sportchilarimizning alohida o'rni va hissasi bor."

Kitobxon yoshlarning ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, yosh sportchilarimizning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi ularning tengdoshlari, qolaversa, yetishib kelayotgan kelgusi avlodga ham qiziqish intilishini tarbiyaladi. Yurtimizning chekka hududlarida kutubxonalar qad rostladi. Toshkentda "Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi", Diyora Keldiyorova asos solgan dzyudo sport klubi ochilishi yuzlab yosh sportchilarning orzusini ro'yog'ga chiqarishga zamin hozirladi. Mamlakatimizda yoshlarni tizimli ravishda muayyan sohalariga yo'naltirish borasida qator ishlar qilinmog'da. Maktablarda 10-11-sinf o'quvchilari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitilayotgani buning yorqin misolidir. Qishloqlarda yashayotgan ishsiz yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun har yili minglab gektar yer ajratilmog'da. Ishini samarali yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kreditlar berilmog'da. Lizing asosida zarur texnika va yengil konstruksiyali zamonaviy avtoservis, maishiy xizmat, chakana savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari qurilmog'da.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ilm-ma'rifati yoshlarni yanada rag'batlantirishga juda katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish, 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini keskin oshirishga alohida ahamiyat berilyapti. Maqsad — zakovati baland, yuksak ma'rifati avlodni tarbiyalash. Davlatimiz yoshlarning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun keng sharoit yaratib berayotgan ekan, yigit-qizlar ham ona vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish yo'lida hamisha "labbay" deya javob qaytarishi lozim.

Davlatimiz rahbari aytganidek, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oiljanon maqsad mujassam edi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur

Mirzo kabi shoirlar va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Abdurafiq Fitrat, Abdulla Qodiriyev kabi rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlari, o'lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratgan.

Bobur Mirzoga tarix hukmi saltanat yukini topshirganda u endi 12 yoshga qadam qo'ygan va keyinchalik hayotiy tajribasi asosida davlatchilik yaratishda katta yutuqlari bilan olamga dong taratgani barchaga ma'lum. Dastlabki devonini muxlis muhiblari zo'r qiziqish bilan tayyorlaganida Hazrat Navoiy 23-24 yoshli o'spirin edi. Kuzatishlarimizda ko'ra, yangilanish, eng avvalo, tafakkurda, qalabda va ruhияtda bo'ladi. Kreativ fikrlaydigan, ko'ksida yurtparvarlik tuyg'usi yonib turgan, ma'nani boy, jismonan sog'lom, boshqalarni ezgu maqsadlar atrofida ortidan ergashтира oladigan yoshlar yangi O'zbekistonning shon-shuhratini olamga ko'z-ko'z qilishga qodir. Bugun ulardan "Uchinchi Renessans sari" shiori ostida birlashib, har qachongidan-da qat'iyat va yurt taqdiriga daxldorlik hissi ila olg'a intilishni kutishga haqlimiz.

Sanoat, texnologiya, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari sohasida ham jonbozlik ko'rsatayotgan, bir necha xorijiy tili mukammal biladigan, dunyo ilm-fani yutuqlaridan bahramand yoshlar yaqin kelajakda maktabi", Diyora Keldiyorova asos solgan dzyudo sport klubi ochilishi yuzlab yosh sportchilarning orzusini ro'yog'ga chiqarishga zamin hozirladi. Mamlakatimizda yoshlarni tizimli ravishda muayyan sohalariga yo'naltirish borasida qator ishlar qilinmog'da. Maktablarda 10-11-sinf o'quvchilari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitilayotgani buning yorqin misolidir. Qishloqlarda yashayotgan ishsiz yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun har yili minglab gektar yer ajratilmog'da. Ishini samarali yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kreditlar berilmog'da. Lizing asosida zarur texnika va yengil konstruksiyali zamonaviy avtoservis, maishiy xizmat, chakana savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari qurilmog'da.

Bunga esa har bir daqiqani qadrash, umrni g'animat bilib, ilmu hunar o'rganish, yangiliklarga intilish va eng muhimi, oilaga, vatanga, xalqqa fidoyilik bilan xizmat qilish orqali erishish mumkin.

RUH UYG'OOQLIGI

Hozir yangi O'zbekiston insonlar erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makon, ma'rifati jamiyatning nuri qiyofasini o'zida yorqin aks ettirib turibdi. Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirish borasidagi dasturlar ham so'zimizning isbotidir. Barcha hududlarda ijodkorlarni qo'llab-quvvatlab, moddiy rag'batlantirilib, uy-joy sharoiti yaxshilanmog'da. Erkin ijod qilishi uchun amaliy ko'mak berilmog'da. Poytaxtimizning eng so'lim, eng go'zal go'shasida Adiblar xiyoboni qo'r-to'kib turibdi. Bu maskan unga tashrif buyuruvchilar uchun tom ma'noda ma'naviy poklanish, ruhiy quvvat manbaga, haqiqiy do'stlik bog'iga, ijodkorlar birdamligining dilbar makoniga aylanib ulgurdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Jismoniy baquvvat insonni

tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish g'oyat murakkab vazifa". Hozirgi globallashtiruvchi zamonada turli g'oyaviy tahdid va xurujlarga qarshi mustahkam ma'naviy qalqonga ega bo'lish zarur. Bu borada yurtimizda diqqatga molik ishlar qilinmog'da.

Aholining ma'naviy-ma'rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko'tarishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Islom sivilizatsiyasi markazining o'rni alohida. Ayniqsa, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Ma'rifat ulashib" loyihasi turli ta'lim muassasalarida katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Har yili ulug' allomalarimiz, buyuk ajdodlarimiz, ilm-fan, san'at va madaniyat sohasida o'chmas iz qoldirgan yurtdoshlarimizning tavallud ayyomi nishonlanaypti. Bu borada hukumat miqyosida qarorlar qabul qilinmog'da. Jumladan, bahor faslida tavallud topgan Abdug'ali G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Zulfaxomim, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov kabi zotlarning faoliyati ham yoshlarimiz uchun chinakam namunadir.

Ajdodlarimiz inson egallagan sohasida mukammallikka erishishi, shaxs sifatida har jihatdan kamol topishi kerakligini o'z qarashlari, xatti-harakatlarida ifoda etgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy qit'alaridan birida bunday yozadi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmog'.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmog'.

Inson o'zini turmush qiyinchiliklari, mashaqqatlarida toblashi kerak, deydi shoir. Bu dunyoga kelib, erinchoqliq yalqovlik bilan kun kechirish, boqimandlikka ko'nikib qolish aslo to'g'ri emas. Aksincha, ham inson o'laroq mukammallikka yuz burish, ham biror kasb yoki hunarda mohir bo'lish va mehnatu shuhrati bilan atrofda qolgan o'ziga nisbatan havas uyg'otish kamolotning yuksak cho'qqisidir. Biror ishni chala-chulpa qoldirish, tanballik bilan erta-inda suraverish, ilm-ma'rifat o'rganishdan qochish hech qachon o'zini oqlamaydi. Bunday dangasa odamlar hammomga kirib, to'la poklanmay chiqqan nopoklardir deb ularni qattiq tanqid qiladi Hazrat Navoiy. Aslida, ma'naviyat dastlab oila muhiti, mahalla, ta'lim dargohlaridagi saboqlar bilan qalbg'a bo'ladi. Ota-onalar tarbiyasi, keksalarimizning o'g'it, ustozlarning ma'rifati ma'naviy tarbiyani yanada saqqalaydi. Ruhi hamisha uyg'oq, bu hayotning o'tkinchi qiyinchiliklari oldida esankirab qolmaydigan, behuda hoyu havasga sira aldanmaydigan insonlarga komillik saodatiga erisha oladi. Ularda vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat tuyg'usi ustuvorlik qiladi. Ma'naviy qalqon butun boshli jamiyatning barcha jabhalarida bir-birini qo'llab, o'zaro birlashib, yakkilik bilan yagona maqsad yo'lida qo'lni qo'lga berib harakat qilganda yanada mustahkamlanadi. Mamlakat obodligi, xalq farovonligi ma'naviy islohotlarning amaliy natijasiga bog'liq.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan qator muzeylar, kutubxonalar, madaniyat va sport muassasalari, teatr va kino saroylari, ommaviy axborot vositalari orqali yoritilayotgan ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi ko'rsatuvlar ham komil shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. 200 jildli "O'zbek adabiyoti durdonalari", 100 jilddan iborat "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari", ko'p jildli "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari" kitoblari nashr etilayotgani, ulug' ajdodimiz hayoti, faoliyati va adabiy merosiga bag'ishlangan 4 jildli "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" chop qilingani ham buyuk o'tmishimizdan ilhom olib, kelajakka o'tkir nigoh bilan boqishimizga yordam beradi. Ayniqsa, jadid bobolarimiz nomini abadiylashtirish, ular qoldirgan boy adabiy, ma'naviy merosni atroficha o'rganish yangi O'zbekiston ilmining o'ziga xos yo'nalishga aylandi. Prezidentimizning "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi, "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori bu yo'nalishda g'oyat muhim vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbarining "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya iştirakchilariga yo'llagan tabrigidagi "Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolati, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning erguz g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir", degan so'zlar jadidlar faoliyati va merosiga ishtiyiq hamda qiziqishni bir necha kura orttirdi. Hozir o'zbek ilm-fanining jadidshunoslik tarmog'ini jadal rivojlantirayotgani ana shu fikrimizni tasdiqlaydi.

Umuman, ma'naviyat jamiyatning barcha sohalariga aloqador bosh maslak sifatida har tomonlama yetuk avlodni kamol toptirish, yurt taraqqiyoti, xalq va millat yuksalishi uchun imkoniyatlarni ishga soladigan haqiqiy fidoyi insonlarni tarbiyalash uchun eng muhim omildir. Jadal taraqqiy etib, jahon maydonida o'z o'rni va ovozig'a ega bo'layotgan yangi O'zbekistonning bugungi nekbin hayotiga xolis va teran nazar solinsa, ma'naviyat sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatning mislsiz natijalari yaqqol namoyon bo'ladi.

"Davlatimiz rahbari yoshlarga qarata bunday dedi: "Yurtimizdagi beqiyos imkoniyatlarni amaliy natijalarga aylantirish uchun tinimsiz harakat qiling! Qayerda bo'lmang, qaysi sohada ishlamang, milliy qadriyatlarimizga, o'zligimizga, Vatanimizga munosib va sodiq bo'ling!"



qaratilayotgan e'tibor, aniq va manzilli ko'mak mamlakatimizni xalqchil davlat sifatida dunyoga tanitmog'da.

Tabiatning saxiyliyi ko'klamning qanday kelishuvi bobodehqonning sidqidildan qilgan mehnatiga bog'liq. Niyati xolis, qalbi musaffo, imoni butun el o'z maqsadidan aslo og'ishmaydi. Yangi O'zbekiston qudrati esa ko'klam nafasidan to'yinib, mehnti samarasini ko'rishga mushtoq yurtdoshlarimizning g'ayratu shijoatiga uyg'undir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bizning kuchimiz — birlik va ahillikda, qudratimiz — Vatanga mehr va

chamanida kurtak yozib, qiyg'os ochilgan hayot gulidir. Chiroyi kishini maftun qiladi. Ifori ko'ngillarga surur va farah baxsh etadi. Shu sababli so'z san'atkorlari — shoiri adiblarimiz ijodida ham yoshlikning ulug'lanishi o'z gachiga, tavssifu tarannumi butkul boshqachga. Jumladan, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov:

Yoshligim dostoniga men shu'ladin yo'ndim qalam,
Ey sahar ufqi, uning sen zarvaraq qog'ozi bo'l,
deya bejiz yozmagan.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-446. 36811 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy